

O'ZBEK TILIDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISH USLUBIYATI

Shabdarova Sveta

Nukus DPI talabasi

Sa'dullayeva Tursunoy

Nukus DPI talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi funksional-ekspressiv bo'yoqlar, „evfemizm“ va „tabu“ tushunchasining ahamiyati, shuningdek, evfemizmlarning nutqimizda qo'llanilish xususiyatlari, tilimizning bo'yoqdorligini oshiruvchi vositalar va ularning uslubiyati haqida bir qancha fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, lingvistik terminlar, evfemizm, tabu, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik, uslubiy birliklar, so'z boyligi*

Tilimizga davlat tili maqomining berilishi katta tarixiy voqea bo'lgan. Abdulla Avloniyning: „Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak- millatning tilini yo'qotmakdur“ -degan hikmatli so'zlari millatimiz istiqboli tilimizda ekanligining yorqin isbotidir. Bu borada yurtimizda juda ko'p ishlar qilinib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini nishonlash to'g'risidagi 2019-yil 4-oktabrdagi Qarori, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar tilimizning yanada rivojlanishiga yo'l ochib bermoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tilimizning yanada yorqin va jozibador bo'ishi, emotsionalligini oshirish maqsadida biz lisoniy birliklardan foydalanamiz. Shulardan biri bu- evfemizmlar. Evfemizmlarning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi. Evfemizm-ifoda etayotgan shaxs nuqtai nazaridan noqulay bo'lgan birliklar o'rnida qo'llangan so'z, so'z birikmasi va gap. Buni biz maqbul so'z qo'llana turib, so'zlovchi tomonidan man etilgan birliklar qo'llanishi natijasida yuzaga kelgan nosoz muhitni bartaraf etadi deyishimiz mumkin.

Evfemizm grek tilidan olingan bo'lib, noo'rin birliklarning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. A.A.Reformatskiy shunday ta'rif beradi: „Evfemizmlar ta'qiqlangan so'zlar o'rniga qo'llanishga ruxsat berilgan so'zlardir“. A.Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan „Lingvistik terminlar izohli lug'ati“da evfemizmga quyidagicha ta'rif beradi: „Evfemizm grekcha „yaxshi gapiraman“ degan ma'noni anglatib biror narsa-hodisaning ancha yumshoq formasi, beadab, qo'pol so'zlar tabularning o'rnida qo'llash hisoblanadi“. Masalan, ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoq so'zlarini qo'llash.

Evfemizm hodisasi B.A.Larin, A.M.Kansev, N.S.Boschayeva, I.V.Artyushkina va boshqa tilshunoslar tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning turli jihatlarini yoritilgan. Olimlar tabuning paydo bo'lishiga insoniyatning e'tiqodi turtki bo'lganligi va ma'lum ma'noda tafakkur

rivojining asosi ekanligini e'tirof etganligi bois evfemizmning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi deb qarashadi. Evfemizm tabuga uchragan so'z ma'nosini yoqimliroq ifodali biror so'z hosila ma'no sifatida aks etilishi hisoblanadi. Masalan, chayon so'zi tabuga uchragan so'z hisoblanadi, uni yumshoqroq talaffuzda nutqimizda gajak deymiz. Ayni mana shu holat ham evfemizmga yorqin misol bo'la oladi. Evfemizmlar faqatgina birgina so'zdan iborat bo'lib qolmaydi, balki bir nechta so'z va iboralardan ham iboratdir. Masalan, biror bir yaqin insonimiz vafot etsa unga hamdard, g'amxo'rlik ma'nosida Alloh sabr bersin, oxirati obod bo'lsin, joyi jannatdan bo'lsin degan iboralarni ishlatamiz. Ayni mana shu iboralarni ham evfemizmlar qatoriga kirgizishimiz mumkin. Evfemizmlar nutqimizda emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni oshiradi, kishilarda nutq madaniyatini shakllantirishning bosh kaliti deyishimiz mumkin. N.M.Potpova tilshunoslar tadqiqotlari natijasiga ko'ra, evfemik birliklarning yuzaga kelishining quyidagi belgilarini keltirib o'tadi:

- ijobiy bo'yoq hosil qilish;
- denotatning stigmatikligi(salbiy bo'yoqdorligi);
- ifodaning asliyatini saqlash;

Shunga ko'ra, olimlar evfemizm tabuning yumshoqroq ko'rinishi bo'lsada, lekin evfemizm da biroz bo'lsada qo'pollik, dag'allik sezilib turishi kerak deb qarashadi. Masalan, ilon aslida chaquvchi, zaharlovchi (tojikcha gazanda) tushunchasining evfemasi jil'on, jiluvchi, sudraluvchi, keyin arqon, arg'amchi, olachilvir, qamchi kabi evfemalar bilan almashtirilgan. Lug'atlarga nazar tashlasak медвед(ayiq) aslida evfemik atama (медаед-asalxo'r) bo'lgan, keyinchalik esa o'rmon xo'jayini iborasi orqali ifodalanidagan bo'lgan. Ishton leksemasi dastlab ichki to'n bo'lgan, keyinchalik tabulashib lozim evfemalari bilan atalgan.

Aslini olib qaraganimizda tilimizdagi evfemizmlarning ildizi diniy qarashlar bilan chambarchas bog'liq. Islom dini ta'limotiga ko'ra, yomon so'zlarni ishlatib til orqali birovning ko'ngliga ozor berish gunoh sanaladi. Ba'zi o'zbek oilalarida er xotiniga katta qizining ismi bilan, xotin esa eriga katta o'g'lining ismi bilan yuzlanadi. Xotinga nisbatan oyisi, onasi, ayasi, erga nisbatan dadasi, adasi, otasi kabi murojaat shakllarini qo'llash mumkin. Bu ham qo'pollikdan yiroqroq bo'lgan evfemizmning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, evfemizm dag'al va qo'pol so'zlarni yumshoqroq talaffuz qilish imkoniyatini beradi. Boshqacha aytganda, aytish uyat, eshitalishi qo'rqinchli, noxush deb hisoblangan, insonda yomon hislarni uyg'otuvchi hodisalarni yumshoq, muloyim, yoqimli, chiroyli ma'no-mazmun ifodalovchi so'z va iboralar almashtirib aytilishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shomaqsudov A, Rasulov I, Rustamov X „O'zbek tili stilistikasi" Toshkent-1983
2. Jamolxonov H „Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent: „Talqin", 2005-y www.ilm.uz
www.ziyouz.com